

O'ZBEK VA INGLIZ MAQOLLARIDA "ZAHAR" KONSEPTINING VOQELANISHI VA ULARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Mirzaeva Dilshoda Ikromjonovna

Farg'ona davlat universiteti Ingliz tili kafedrası mudiri, PhD

Bo'riyeva Ozoda Botirjon qizi

Farg'ona davlat universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7261447>

Annotatsiya. Ushbu maqolada konsept termining lingvistik xususiyatlari yoritilgan bo'lib, bu atamaning zamonaviy tilshunoslikka oid tadqiqotlardagi ahamiyati tushuntirilgan. Qolaversa, "zahar" konseptining turli tizimli tillar sanalmish o'zbek va ingliz tillarida ifodalanish usullarining lingvokulturologik xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: konsept, lingvokulturologiya, sotsiolingvistika, qiyosiy tahlil metodi.

РЕАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТА "ЯД" В УЗБЕКСКИХ И АНГЛИЙСКИХ ПОСЛОВИЦАХ И ИХ ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ

Аннотация. В статье выделены лингвистические особенности термина концепт, а также объяснено значение этого термина в исследованиях современной лингвистики. Кроме того, были проанализированы лингвокультурологические особенности способов выражения концепта «яд» в разных систематических языках, узбекском и английском.

Ключевые слова: концепт, лингвокультурология, социолингвистика, метод сравнительного анализа.

THE REALIZATION OF THE CONCEPT "POISON" IN UZBEK AND ENGLISH PROVERBS AND THEIR LINGUOCULTURAL CHARACTERISTICS

Abstract. In this article, the linguistic features of the term concept are highlighted, and the importance of this term in modern linguistic research is explained. In addition, the linguistic and cultural characteristics of the methods of expression of the concept of "poison" in different systematic languages, Uzbek and English, were analyzed.

Key words: concept, linguocultology, sociolinguistics, comparative analysis method.

KIRISH

Hozirgi kunda barcha fan sohalari qatori tilshunoslik ham tobora rivojlanib kelmoqda. Dunyo tilshunosligida matnga avvallari sintaktik struktur jihatdan yondashilgan bo'lsa, XXI asr boshlaridan boshlab tilni lingvokulturologik, lingvokognitologik, sotsiolingvistik hamda psixolingvistik tamoyillar yordamida tahlil qilish kuchaydi. Xususan, insonning bilish faoliyati bilan shug'ullanuchi lingvokognitologiyaning paydo bo'lish sanasini 1956-yildan deb e'tirof etadilar. Kognitiv tilshunoslikda kognitiv atamasining izohi "inglizcha "cognitive – bilishga oid" so'zi bilan bog'liq"dir. Kognitiv lingvistika insonning kognitiv faoliyati bilan chambarchas bog'liq sanaladi. Konsept, ssenariy, kognitsiya, freym atamalari kognitiv lingvistikaning markaziy tushunchalaridir. Ular orasida konsept atamasi lingvokulturologiya, lingvokognitologiya hamda adabiyotshunoslikda qo'llaniladi. Ammo izohi esa o'zaro farqlanadi. Konsept lotin tilidagi "conceptus" – tushuncha so'zining kalkasidir. Konsept rus tilshunosligida XX asrning birinchi choragida faylasuf S. Askoldov tomonidan ilmiy muomalaga kiritiladi. Ushbu termin o'tgan asrning 80-yillariga qadar tilshunoslikda tushuncha so'ziga sinonim sifatida ishlatilgan bo'lsa, hozirgi kunda uning ma'nosini anchayin kengayganini kuzatish mumkin. Konseptga olimlarning yondashuvi va ta'riflari turlichadir, lekin biz qisqa va tushunarli bo'lgan

Sh.Safarovning quyida keltirilgan fikrini ma'qul deb bildik: "Konsept ham tafakkur birligi va uning asosida tushuncha, obraz va lisoniy ma'no umumlashmasi yotadi".

TADQIQOT METODI VA METODOLOGIYASI

Konseptga doir tahlillarimizni "zahar" konsepti misolida davom ettirmoqchimiz. Juda ko'plab o'zbek maqollari, paremiologik birliklarda "zahar" konseptini uchratishimiz mumkin. Maqollarda barcha fikr bir umumiy ma'noga qaratiladi va har bir maqolda yashirin ma'no, sema bo'ladi. Ko'pincha maqollar o'z ma'nosida emas, balki ko'chma ma'noda qo'llaniladi. Chunki shu orqali insonlarni tanqid qilish, ularni hayvonlar, qushlar, o'simliklar orqali yaxshilikka da'vat etish yashiringan bo'ladi. Bu esa fan tilida *allegorik vositalar* deb yuritiladi. Lekin allegorik vositalarning yana bir jihati shuki, ular qaysidir ma'noda insonlarni boshqa bir vositalar orqali aks ettiradi. Masalan, zahar konsepti doirasida o'zbek tilida *ilon* lekmasi orqali shaxs gavalantirilgan bo'lsa, ingliz tilida bu holat *o'rgimchak (spider)* yordamida ifodalanadi. "*Ilon o'z zahridan o'lmas*" yoki ingliz tilidagi "*Where the bee sucks honey the spider sucks poison*" maqollari buning amaliy isboti bo'la oladi. Semantik nuqtai nazardan bu paremiologik birliklarni turli semantik-ma'noviy guruhlariga ajratishimiz mumkin.

1. *so'z* leksemasiga ishora qilinib, yomon *so'z*, achchiq *so'z*, inson diliga azob beruvchi *so'z* ma'nolarini ifodalaydi. Masalan:

*Achchiq til — zahri ilon,
Chuchuk tilga — jon qurbon.*

*Iliq so'z — shakar,
Sovuq so'z — zahar.*

*Shakar ham tilda,
Zahar ham tilda.*

2. "zahar" konsepti shaxsning yomon xulqini, ya'ni fe'l-atvorini ifodalashi mumkin.

Masalan:

*Ilon zahri — tishida,
Yomon zahri — tilida.*

Ilon o'z zahridan o'lmas.

*O'tarchining nashtari yeng ichida,
Zahar xotin nashtari til uchida.*

Ilon ishi — zahar solmoq.

3. "zahar" konseptidan biror holatni yomonlashishiga sababchi motiv sifatida ham qo'llaniladi. Masalan:

Shirin oshini zahar qilmoq, hayotini zahar qilmoq va boshqalar.

TADQIQOT NATIJASI VA MUHOKAMA

Ingliz va o'zbek tillari turli tizimdagi tillar hisoblansada, yuqorida ta'kidlangan semantic guruhlarini ingliz tilida ham kuzatishimiz mumkin. Masalan:

*A pot of milk is ruined by a drop of poison.
Another man's poison is not necessarily yours.*

Distrust is poison to friendship.

Honeyed speech often conceals poison and gall.

XULOSA

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatdiki, ingliz va o'zbek tillari maqollar va paremiologik birliklarga boy hisoblanadi. Ingliz va o'zbek tillari turli tizimga ega tillar hisoblansada, "zahar" konseptining verballashuvida lingvokulturologik o'xshashlik kasb etmoqda. Tilbugungi kun zamonaviy tilshunoslik va tilshunos olimlar oldida turgan ulkan vazifa ham aynan tillarning nafaqat struktur, balki lingvokulturologik, pragmatik, lingvokognitiv va sotsiolingvistik xususiyatlarini qiyosiy aspektda tadqiq qilish hisoblanadi.

REFERENCES

1. Aliyeva, N. (2021). СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФРАЗЕМ В АНГЛИЙСКОМ, РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 3(8).
2. Aliyeva, N. (2021). ИЗОМОРФИЗМ АНГЛИЙСКИХ КОЛЛОКАЦИЙ И ФРАЗЕМ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ С УЧЕТОМ ПЕРЕХОДНОСТИ ЗНАЧЕНИЯ. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 2(2).
3. Mirzaeva, D. (2021). THE ROLE OF PAREMIA IN THE SYSTEM OF NATIONAL CULTURAL HERITAGE. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 2(3).
4. Mirzayeva, D. (2021). PROVERBS AND SAYINGS AS A PRODUCT OF THE NATION'S COGNITIVE THINKING. In *Multidiscipline Proceedings of Digital Fashion Conference* (Vol. 1, No. 2). Ismoilova, S., & Xalilova, G. (2022). RESEARCH ON THE ISSUE OF QUESTIONS IN LINGUISTICS. *Development and innovations in science*, 1(1), 17-19.
5. Jurayev, I. M. OLD VIEWS OF FAMILY AND SOCIAL RELATIONS.
6. Джураев, И. М. Ахмадиев Нуриддин Мухитдинович аспирант Ферганский государственный университет Узбекистан г. Фергана, ул. Мурабийлар, 19.
7. Салаева, М. (2009). Периодизация истории узбекской педагогики как педагогическая исследовательская задача. *Современные гуманитарные исследования*, (6), 164-165.
8. Salaev, M. S., & Khaydarov, M. E. (2020). Improvement of theoretical and methodological bases of periodization of the history of uzbek pedagogy. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(9), 479-488.
9. Рашидов, А. У. (2021). ФОРМИРОВАНИЕ СТИЛЕЙ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ КАК ЭЛЕМЕНТ ПОДГОТОВКИ БУДУЩЕГО СПЕЦИАЛИСТА К УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СФЕРЕ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА. *Fan-Sportga*, (4), 81-83.
10. Sirojova, Z. (2022). SYNCRETISM OF SYNTACTICAL RELATIONS IN UZBEK COMPLEX SENTENCES. *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*, 2(11), 119-122.
11. Nasriddinova, S. Z. (2022). A Comparative Study of Syntactical Relations of Compound Sentences in Uzbek Linguistics.

12. Nasriddinova, S. Z. (2022, April). CLASSIFICATION OF SYNTACTIC RELATIONS IN COMPOUND SENTENCES. In *International Conference on Research Identity, Value and Ethics* (pp. 121-123).
13. Nasriddinova, S. Z. (2022). Empirical Study of Syntactical Relations of Compound Sentences in Uzbek Linguistics.
14. Kizi, Y. H. R., & Kizi, N. D. A. (2022). On the study of the structure of phraseological units with toponyms in the English and Uzbek languages.
15. Soxibova, M. G. (2022). Important features of linguoculture in study of national and cultural words. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(08), 9-13*.
16. Abbasova, N. K. (2018). Using Effective Techniques Developing Learners' Critical Thinking in Teaching English Proverbs and Sayings. *Eastern European Scientific Journal*, (6).
17. Abbasova, N. (2019). Using effective techniques for developing critical thinking of the learners while teaching English proverbs and sayings. *Scientific journal of the Fergana State University*, 2(3), 107-110.